

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

ERGASHEV ILXOMJON OBODOVICH

**DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI BARQARORLIGINI
TA’MINLASHDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторский (DSc) диссертации

Contens of dissertation abstract for Doctor of Science (DSc)

Ergashev Ixhomjon Obodovich

Davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish..... 3

Эргашев Илхомжон Ободович

Совершенствование системы косвенного налогообложения для обеспечения устойчивости доходов государственного бюджета..... 31

Ergashev Ixhomjon Obodovich

Improving the indirect taxation system to ensure sustainability of the state budget revenues..... 61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 67

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

ERGASHEV ILXOMJON OBODOVICH

**DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI BARQARORLIGINI
TA’MINLASHDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Iqt909 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Toshmatov Shuxrat Amonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Xusanov Durbek Nishonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Umidjon Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «20» o's 10⁰⁰ soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: (+99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (86 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: (+99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «28» 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil «19» 07 dagi 44 raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlar muhim moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. Bilvosita soliqlar bevosita soliqlardan farqli ravishda tovar va xizmatlar iste'moli orqali undiriladi va soliq yuki odatda yakuniy iste'molchi zimmasiga tushadi. Xalqaro statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2024 yilda bevosita soliqlar umumiy soliq tushumlarining 56,72 foizini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023 yildagi 54,63 foizga nisbatan o'sgan. Mazkur o'sish orqali bilvosita soliqlar ulushi 43,28 foizgacha pasaygan¹, bu esa soliq siyosatida bilvosita soliqlar rolining ortganini ko'rsatadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ko'pgina mamlakatlar budjetning asosiy qismini bilvosita soliqlar orqali ta'minlab kelmoqda. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) jahonda eng keng tarqalgan soliqlardan biri bo'lib, hozirda 174 ta mamlakat tomonidan joriy etilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) a'zosi bo'lgan 38 mamlakatdan 37 tasi QQS tizimini amalga tatbiq etgan², shuningdek Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan Yo'riqnomaga (Council directive 2006/112/EC) muvofiq ushbu Ittifoqqa a'zo mamlakatlar uchun QQSni qo'llash jihatlari belgilab berilgan³. Bu holat QQS va umumiy bilvosita soliqlar mexanizmlarini samarali boshqarish va raqamlashtirish talabini kun tartibiga chiqaradi. Chunki samarali soliq ma'muriyatchiligiga asos solinishi nafaqat budjet daromadlarini to'liq yig'ishni ta'minlaydi, balki soliq to'lovchilarga nisbatan teng va shaffof soliq yukini taqsimlash imkonini ham yaratadi. Shu jihatdan, bilvosita soliqlarning to'g'ri hisoblanishi, undirilishi va nazorati bo'yicha zamonaviy raqamli yechimlar joriy etish, mamlakatlar soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Jahonda davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlash, soliq-budjet siyosati samaradorligini oshirish maqsadida bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu tadqiqotlar, avvalo, soliq to'lovlarini to'liq va shaffof hisobga olish, soliq tushumlarini barqaror va prognoz qilinadigan darajada saqlash hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligini yaxshilashga qaratilgan. Xalqaro amaliyotda ishlab chiqarish hamda eksport va import operatsiyalari bilan bog'liq holatlarda bilvosita soliqlar, ayniqsa, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksizlar va bojxona yig'imlarini undirish mexanizmlarini takomillashtirishga keng e'tibor qaratilmoqda. Ularda soliq yuki iste'molchiga passiv ravishda yuklatiladi va talab hamda taklif narx egiluvchanligi bilan yaqin bog'liq bo'ladi. Bunda, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) singari bilvosita soliqlar jahon miqyosida davlat budjeti daromadlari manbai sifatida muhim ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda bilvosita soliqlarning hisob-kitobini avtomatlashtirish, raqamli iqtisodiyot sharoitida ularning hisobini yuritish mexanizmlarini joriy qilish, soliq bazasiga raqamli moliyaviy aktivlar va raqamli tovarlar, xizmatlarni jalb etish orqali ushbu turdagi soliqlar

¹ Direct Tax Collection Reaches 14-Year High in 2023-24. <https://vajiramandravi.com/upsc-daily-current-affairs/mains-articles/direct-tax-collection-reaches-14-year-high-in-2023-24/>.

² Alastair Thomas.VAT Rate Structures in Theory and Practice. Macroeconomics, Trade and Investment Global Practice January 2024. <chromeextension://efaidnbnmnibpcjpcglclefindmkaj/https://documents1.worldbank.org/curator/en/099920201182414099/pdf/>.

³ <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2006/112/oj/eng>

samaradorligini oshirish dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylangan. Shuningdek, raqamli instrumentlar orqali soliqlarni hisoblash, yig‘ish va nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligini kuchaytiradi hamda soliqni yashirish imkoniyatlarini minimallashtiradi. Shu bois, raqamli soliq islohotlari, QQSni raqamlashtirish, soliq to‘lovchilar faoliyatini onlayn kuzatish va avtomatik hisob-kitob mexanizmlarini joriy etish orqali davlat budjeti daromadlarini barqaror ta‘minlash mumkin bo‘ladi. Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bu jarayonni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berayotgan muhim manba hisoblanadi.

O‘zbekistonda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish orqali budjet barqarorligini ta‘minlash, innovatsion faoliyatni fiskal jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, soliq qonunchiligida yagona metodologik yondashuv shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Bu borada, bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish uchun bir qator strategiyalarni amalga oshirish talab etiladi. Ushbu strategiyalar orasida soliq bazasini kengaytirish, soliqqa tortish samaradorligini oshirish, soliq ma‘muriyatchiligi rivojlantirish, soliq yuki va imtiyozlarini optimallashtirish hamda xalqaro soliq munosabatlarini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar mavjud. Shu bilan birga, ushbu jarayonni amalga oshirishda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarni hisobga olish muhimdir. Shu sababdan, davlat budjeti daromadlarini barqarorligini ta‘minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2021-yil 24-avgustdagi PF-5755-son «Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligi takomillashtirish to‘g‘risida»gi, 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son «Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida»gi, 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son «Soliq ma‘muriyatchiligi isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-son «O‘zbekiston Respublikasining «2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida»gi qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyuldagi 313-son «Alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish to‘g‘risida», 2021-yil 22-sentabrdagi 595-son «Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴.

Davlat budjeti daromadlarini barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, oliy ta'lim muassasalari va xalqaro moliya tashkilotlari, jumladan, International Monetary Fund (IMF), World Bank Group (WBG), United Nations (UN), Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), European Commission (EC), Tax Foundation, PricewaterhouseCoopers (PWC), Center for Economic and Policy Research (CEPR), National Bureau of Economic Research (NBER), Macroeconomic Policy Institute (IMK), Harvard University (AQSh), Oxford University (Buyuk Britaniya), University of Iowa (AQSh), Grinnell College (AQSh), Pace University (AQSh), University of Navarra, IESE Business School (Ispaniya) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Davlat budjeti daromadlarini barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar asosida quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan: bilvosita soliqqa tortish nazariyalari asoslab berilgan (IMF, NBER, Harvard University, Oxford University, Pace University); qo'shilgan qiymat solig'ini asosan mijozlar zimmasiga o'tkazishlari va tovar (xizmat)lar narxining o'sishiga olib kelishi aniqlangan (CEPR, World Bank, Oxford University); bilvosita soliqlarning biznes muhit va investitsion faollik, bandlik darajasi va iqtisodiy o'sishga ta'siri baholangan (IMF, OECD, Tax Foundation, NBER, Harvard University, University of Navarra, Grinnell College); bilvosita soliqlar vositasida innovatsion faoliyatni fiskal jihatdan qo'llab-quvvatlash (IMF, OECD, EC) yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.

Jahonda davlat budjeti daromadlarini barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator nazariy va empirik izlanishlar, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: bilvosita va bevosita soliqlarning nisbat munosabatlarini maqbullashtirish, bilvosita soliqlarning budjetlararo munosabatlarni shakllantirishdagi rolini oshirish, qo'shilgan qiymat solig'ini hududlar iqtisodiyotiga ta'sirini baholash, qo'shilgan qiymat solig'ining nolli stavkalarini qo'llash orqali eksport operatsiyalarini rivojlantirish, aksiz solig'i funksiyalarining aholi salomatligini himoya qilishdagi uyg'unligini ta'minlash, aksiz solig'i stavkalarini tabaqalashtirish orqali mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatini rag'batlantirish, bilvosita soliqlardan beriladigan soliq imtiyozlari samaradorligini ikkiyoqlama baholash metodologiyasini ishlab chiqish; bilvosita soliqqa tortish bosqichlarini to'liq qamrab oluvchi fiskal mexanizmlarni joriy qilish.

⁴ Perspektivy innovatsionnoy politiki 2020: Vostochnaya Yevropa i Yujnyy Kavkaz. Yevropeyskaya ekonomicheskaya komissiya Organizatsii Obyedinennyyh Natsiy. Jeneva. 2021. 420 s.; Vsemirnyy bank, godovoy otchet 2018. Informatsionno-izdatelskiy otdel Vsemirnogo banka: Publishing and Knowledge Division, The World Bank, Washington. 97 c.; Innovations in tax compliance. Building Trust, Navigating Politics, and Tailoring Reform. © 2022 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. Washington, DC 20433. 239 r.; Fiscal policies for innovation and growth. International Monetary Fund. Fiscal monitor: Acting now, acting together. Chapter 2. Washington. USA. April 2019. 29 r.; Policy incentives for private innovation and maximising the returns. From: OECD Journal: Economic Studies. Vol. 2013/1. Paris. © OECD 2014. r 45.; Stimulating digital innovation for growth and inclusiveness. The role of policies for the successful diffusion of ICT. 2016. Ministerial meeting on the digital economy. Background report. OECD digital economy papers No. 256. 151 r.; Stimulating digital innovation for growth and inclusiveness. The role of policies for the

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, shuningdek, korxonalarining ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini soliqlar vositasida tartibga solish masalalari qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlar va mutaxassislardan A.Ufuk, J.Grigsbiy, T.Nicholas, D.Hanley, A.Vankan, S.Stantcheva, J.Atanassov, X.Liu, T.Karkinskiy, N.Riedel, Z.Chen, N.Rao, D.Romero-Jordan, A.Dechezlepretre, R.Nirupama, E.Einio, R.Martin, K.Nguen, J.Reenen, I.Guceri, L.Li, J.Serrato va boshqalar tomonidan soliqlarning innovatsiyalarga ta’siri, soliqlar orqali xo‘jalik yurituvchi subektlarning innovatsion faolligini oshirish va innovatsion rivojlanish bilan bog‘liq qator masalalar tadqiq etilgan⁵.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari va mutaxassislardan D.Chernik, A.Panskov, I.Mayburov, S.Barulin, R.Shumyatskiy, A.Vasileva, O.Mandromchenko, O.Savina, Yu.Malkova, O.Nikulina, A.Serdyuk, I.Korostelkina, M.Orlova, I.Melnikova, P.Svoboda, Ye.Marmilova, Ye.Baklykova, V.Klavdienko, T.Malinina, G.Kutergina, O.Fisher, A.Okun, Yu.Steshenko S.Golovan, Ye.Yermakova, N.Larionov, R.Ivanov, O.Kalacheva, M.Merkulov, A.Kiselev, L.Chaykovskaya va boshqalarning ilmiy ishlarida iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solishning ilmiy-nazariy jihatlari, iqtisodiyotni innovatsion rivojlashtirishga ta’sir etuvchi soliq instrumentlarining o‘ziga xos xususiyalari, ITTKI va innovatsion faoliyatni soliqlar vositasida rag‘batlantirishning xalqaro tajribalariga oid masalalar yoritilgan⁶.

⁵ Akcigit Ufuk, John Grigsby, Tom Nicholas, and Stefanie Stantcheva, "Taxation and Innovation in the 20th Century," *Quarterly Journal of Economics*, forthcoming, 2022; Stefanie Stantcheva, *The effects of taxes on innovation: theory and empirical evidence*, Working Paper 29359, National bureau of economic research 1050, Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 October, 2021; Atanassov, Julian and Xiaoding Liu, "Can Corporate Income Tax Cuts Stimulate Innovation?," *Journal of Financial and Quantitative Analysis*, August 2020, 55 (5), 1415-1465; Karkinsky Tom and Nadine Riedel, "Corporate Taxation and the Choice of Patent Location within Multinational Firms," *Journal of international Economics*, 2012, 88 (1), 176-185; Romero-Jord’an, Desiderio, Mar’ia Jes’us Delgado-Rodr’iguez, Inmaculada Alvarez-Ayuso, and Sonia de Lucas-Santos, "Assessment of the Public Tools Used to Promote R&D Investment in Spanish SMEs," *Small Business Economics*, 2014, 43 (4), 959-976; Dechezlepretre, Antoine, Elias Eini’o, Ralf Martin, Kieu-Trang Nguyen, and John Van Reenen, "Do Tax Incentives for Research Increase Firm Innovation? An RD Design for R&D," *NBER Working Paper Series*, 2016, (22405); Guceri, Irem and Li Liu, "Effectiveness of Fiscal Incentives for R&D: Quasi-Experimental Evidence," *American Economic Journal: Economic Policy*, 2019, 11 (1), 266-91; Chen, Zhao, Zhikuo Liu, Juan Carlos Su’arez Serrato, and Daniel Yi Xu, "Notching R&D Investment with Corporate Income Tax Cuts in China," *American Economic Review*, 2021, 111 (7), 2065-2100; Rao, Nirupama, "Do Tax Credits Stimulate R&D Spending? The Effect of the R&D Tax Credit in Its First Decade," *Journal of Public Economics*, 2016, 140, 1-12.

⁶ Chernik D. Puti reformirovaniya nalogovoy sistemy // *Ekonomika. Nalogi. Pravo.* - № 1. - S. 2013. 54- 64; Panskov V.G. Nalogovoye regulirovaniye kak instrument podyema ekonomiki. *Nalogi, upravleniye finansami. Finansovyy universitet pri Pravitelstve RF.* -M., 2019. 86-99 s; Mayburov I.A i dr. *Nalogi i nalogoblojeniye. Uchebnik. 6-ye izd., pererab. i dop.* - Moskva: YUNITI-DANA, 2015– 487 s; Mayburov I. i dr., *Ekonomika nalogovyyh reform. Monografiya.* -K.: Alerta, 2013. -S. 221-225; Mayburov I. *Otsenka nalogovyyh rasxodov i effektivnosti nalogovyyh lgot // Obshchestvo i ekonomika.* № 4. 2013. -S. 87; Shumyatskiy R.I. *Nekotorye aspekty nalogovogo regulirovaniya innovatsionno-investitsionnoy deyatel’nosti. Sibirskiy institut upravleniya - filial Rossiyskoy akademii narodnogo khozyaystva i gosudarstvennoy slujby pri Prezidente RF.* Novosibirsk. 2018. 34-36 s; Vasileva A. G. *Nalogovoye regulirovaniye innovatsionnogo razvitiya ekonomiki. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk.* MaGU. Chelyabinsk – 2010. 28 s; Malkova Yu. V. *Nalogi kak instrument razvitiya innovatsionnoy ekonomiki. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk.* FGOBUVPO «Finansovyy universitet pri Pravitelstve Rossiyskoy Federatsii» M. 2011. 27 s; Nikulina O. V., Serdyuk A. A. *Nalogovoye regulirovaniye innovatsionnoy deyatel’nosti kak faktor razvitiya sistemy gosudarstvennoy podderjki innovatsionnogo predprinimatel’stva. Byudjetno-nalogovaya sistema. // Finansy i kredit.* № 27. 2016. 2-19 s; Korostelkina I.A., Androsova A.O. *Effektivnost nalogovogo stimulirovaniya innovatsionnoy deyatel’nosti v RF: otsenka i raschet // Trendy i upravleniye.* - 2020. № 1. – S. 38-50; Orlova M.Ye., Muxametov F.A. *Instrumenty nalogovogo stimulirovaniya innovatsionnoy deyatel’nosti. Sentr nauchnogo sotrudnichestva «Interaktivnaya plyus».* Kazan. 2016. -S. 1-5; Melnikova I.N. *Nalogovoye stimulirovaniye innovatsionnoy*

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Q.Yax'oyev, Sh.Gataulin, T.Malikov, S.Gulyamov, I.Alimardanov, O.Olimjonov, B.Toshmurodova, N.Xaydarov, Sh.Toshmatov, J. O'rmonov, I.Niyazmetov, S.Voronin, S.Xudoykulov va boshqalarning⁷ ilmiy ishlarida iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solishning

deyatelnosti v Belarusi / I.N.Melnikova // Sentr sistemnogo analiza i strategicheskix issledovaniy NAN Belarusi. - 2011; Svoboda P. The impact of tax incentives on research and development. Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis, Czech.2017. 65(2): 737-743; Marmilova Ye.N. Rol nalogov kak ekonomicheskix rychagov stimulirovaniya innovatsionnykh protsessov // Ekonomicheskiye i yuridicheskiye nauki / Finansy i nalogoblojeniyе. № 5 Minsk. 2016. str. 109-115; Vaklykova Ye.A. Mexanizmy nalogovogo regulirovaniya innovatsionnogo razvitiya predpriyatiy v usloviyax chlenstva Rossii v VTO. Rossiyskoye predprinimatelstvo. -M. № 20 (266) / 2014. str. 158-164; Merkulov M.M. Investitsionnyy nalogovyy kredit: a stoit li bratsya? Nauchnaya statya. Yuridicheskiy departament ZAO "MKD". 2017. -S.1-10; Kalacheva O.S. Nalogovoye stimulirovaniye innovatsionnoy deyatelnosti v RF na sovremennom etape. Business. Education. Law. Bulletin of Volgograd business institute, 2016, november № 4 (37). Subscription indices - 38683, R8683. str. 157-159; Barulin S. V. Nalogovaya politika Rossii: monografiya // S.V. Barulin, A.V. Makrushin, B.A. Timoshenko. – Saratov: Satellit, 2004. – 167 s; Ivanov R. X. Nalogovyy kredit / X.R. Ivanov // Gumanitarnye, sotsialno-ekonomicheskiye i obshchestvennye nauki. - 2014. - №5. - S. 143-146; Yermakova Ye.A. Larionov N.A. Nalogovyye kredity v sisteme stimulirovaniya innovatsionnoy aktivnosti / Ye.A. Yermakova, N.A. Larionov // Upravlenes. - 2015. - №2. - S. 4-10; Savina O. Problemy provedeniya otsenki effektivnosti instrumentov nalogovogo stimulirovaniya: analiz sovremennoy praktiki // Nalogi i nalogoblojeniyе. - № 8 (134). 2015. - S. 580-591; Mandroshenko O. Osnovnyye podkhody k otsenke effektivnosti nalogovyykh lgot // Finansovaya analitika. problemy i resheniya. Izdatelskiy dom Finansy i kredit, M. № 39. 2016. -S. 45-60; Savina O. va Malkova Yu. Monitoring effektivnosti sistemy nalogovyykh instrumentov stimulirovaniya razvitiya innovatsionnoy ekonomiki v usloviyax deystvuyushchego zakonodatelstva i napravleniya yego sovershenstvovaniya. Nalogovoye administrirovaniye. Nalogi i nalogoblojeniyе – №4 (94). 2012 . str. 24-34; Kutergina G. va Mingazinova Ye. Metodiki otsenki i monitoringa effektivnosti nalogovyykh lgot: podkhody i problemy // Finansy, kredit i denejnoye obrashcheniyе. Izvestiya DVGU. Ekonomika i upravleniyе. № 1. 2014. -S. 84-99; Golovan S. Obzor osnovnykh metodik otsenki effektivnosti nalogovyykh lgot v selyax stimulirovaniya innovatsionnoy deyatelnosti. Finansovaya, nalogovaya i denejno-kreditnaya politika. Baykalskiy gosudarstvennyy universitet ekonomiki i prava. 2014. -S. 142-168; Okun A. va Steshenko Yu. Sovershenstvovaniye podkhodov k otsenke effektivnosti nalogovogo stimulirovaniya v Rossiyskoy Federatsii // Finansovaya politika: problemy i resheniya. -M. 10, 2017. №12. - str. 1407-1423; Fisher O. va boshqalar. Otsenka effektivnosti nalogovogo stimulirovaniya innovatsionnoy deyatelnosti v Rossii / O. V. Fisher, L. V. Perekrestova, T. P. Lomakina, M. Sh. Irizepova // «Nalogi i nalogoblojeniyе». - № 2. 2014. - S. 156-173. Malinina T. Otsenka nalogovyykh lgot i osvobojdeniy: zarubejnyy opyt i rossiyskaya praktika. - M.: In-t Gaydara, 2010. 212 s; Klavdiyenko V.P Nalogovoye stimulirovaniye innovatsionnoy aktivnosti predpriyatiy v Kitaye // Obshchestvo i ekonomika, MGU im. M.V. Lomonosova. № 7, 2018. -S. 39-50; Kiselev A.O., Bezrukova T.L. Metody gosudarstvennogo stimulirovaniya innovatsionnoy deyatelnosti// A.O. Kiselev, //Aktualnyye napravleniya nauchnykh issledovaniy XXI veka: teoriya i praktika. - 2017. - T. 5. № 1 (27). - S. 411-415; Ilina N.A. Rol gosudarstvennogo regulirovaniya v innovatsionnoy deyatelnosti organizatsiy//Nauchnyy elektronnyy jurnal "Meridian". - 2018. - № 1 (12). - S. 54-56; Chaykovskaya L.A., Mamrukova O.I. Nalogovoye

⁷ Yaxyoyev K. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Qayta ishlangan. TMI. Fan va texnologiyalar markazi. –Toshkent; 2003. 247 b; Gataulin Sh.K. Nalogi i nalogoblojeniyе. Uchebnik. Izdatelskiy dom «Mir ekonomiki i prava», -T.; 1996. -S. 303., Gulyamov S. Innovatsionnoye razvitiye Uzbekistana: problemy i puti ix resheniya // Iqtisodiyot va ta'lim. Innovatsiya va investitsiya. 2018. № 2.43-47 b; Malikov T.C. Coliqlar va coliqqa tortishning dolzarb macalalari. -T.: "Akademiya" 2002.-53 b; Olimjonov O. Adolatli soliq – mamlakat tayanchi // Soliq to'lovchining jurnali, 2006. № 6; Malikov T.C. Soliq imtiyozlarining salbiy jihatlari. "Soliq tizimini takomillashtirish yo'nalishlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to'plami. -T.; Moliya. 2011. 438 b; Toshmurodova B.E. Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda soliqlardan samarali foydalanish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: BMA, 2007.–28 b; Toshmatov Sh.A. Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlarning rolini kuchaytirish muamolari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: BMA. – 2008. 321 b; Toshmatov Sh.A. O'rmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. i.f.d. Rajabbayev Sh.M. va boshqalar. Moliyalashtirishning innovatsion usullari. Monografiya. -T.: Moliya. 2015. 160-b; Voronin S.A. Nalogovyy mexanizm stimulirovaniya innovatsiy i neobxodimost yego sovershenstvovaniya v Uzbekistane. Instituta prognozirovaniya i makroekonomicheskix issledovaniy. -Tashkent, 2017. Str. 11; Alimardanov I. va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar va xizmatlarini eksport qilishda soliqlar orqali rag'batlantirish masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar", -T.: № 2, 2016. 1-8 b; Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent.: "Moliya". 2018. 32 b; Niyazmetov I. M. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda soliq mexanizmlaridan samarali foydalanish // «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni

ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq qilingan. Biroq, O'zbekistonda Davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning nazariy, huquqiy, uslubiy jihatlarini hamda amaliy muammolari alohida va yaxlit ilmiy tadqiqot obyekti sifatida kompleks o'rganilmagan. Bu esa mazkur mavzuni tadqiq etishni taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasining tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bilvosita soliqlar vositasida iqtisodiyotning fiskal tartibga solishdagi iqtisodiy mohiyati va bahoni shakllantirishdagi ahamiyatini tadqiq etish;

bilvosita soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rni baho berish; qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning metodologik usullari va uni avtomatlashtirilgan tizimini tadqiq etish;

aksiz solig'ini hisoblash va undirishning huquqiy-institutsional asoslarini tadqiq etish;

import qilinadigan tovarlarda aksiz solig'ini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

aksiz solig'ining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga iqtisodiy ta'sirini aniqlash; davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqlarning prognoz ssenariyalarini ishlab chiqish;

tashqi iqtisodiy faoliyatda bilvosita soliq solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarini taklif etish;

davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortishni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti sifatida davlat budjeti va bilvosita soliqqa tortish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada iqtisodiy-statistik, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, dinamikada o'rganish, ma'lumotlarni guruhlash, induksiya, deduksiya, statistik hamda regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish» mavzusidagi respublika onlayn ilmiy- amaliy konferensiya tezislari to'plami. – Toshkent: «Moliya» nashriyoti, 2020. (541) 14-16 b; Niyazmetov I. M. Soliq imtiyozlari samaradorligini oshirish yo'llari. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish sharoitida soliqqa tortish va buxgalteriya hisobining muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari to'plami. T.: FI., 2022. – (787) 171-177 b; Ashurova N. Soliq imtiyozlari va byudjet daromadlarining uzviyligi. // Soliqlar va soliqqa tortish./ Moliya. 2015. №4 TMI. 82-86 b. Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya- kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. I.f.d. dissert. TMI. -T., 2008. 293 b., Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. i.f.d. dissert. BMA. -T.; 2018. 246 b., O'rmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. i.f.d.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fiskal yo‘qotishlarni minimallashtirish maqsadida tijorat xususiyatiga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan xizmatlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha berilgan imtiyozlarni bekor qilish taklif etilgan;

byudjet mablag‘lari hisobidan har yillik mineral xom-ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko‘rsatiladigan xizmatlari bo‘yicha aylanmalardan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozni bekor qilish taklif etilgan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i guvohnomasining amal qilish muddati to‘xtatilgan davrda hisobga qabul qilinmagan, aslida esa olingan tovar va xizmatlar bo‘yicha to‘langan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan, guvohnoma amal qilishi tiklangan taqdirda, soliq to‘lovchi va uning kontragentlari tomonidan ushbu davr uchun soliq hisobida aniqlik kiritish (to‘g‘rilash) imkonini beruvchi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish asoslangan;

soliq va bojxona organlari tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘ini o‘zaro hisobga olishda soliq to‘lovchi import amaliyotini amalga oshirayotganda bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish vaqtida qo‘shilgan qiymat solig‘i qoplanishi lozim bo‘lgan summa hisobidan to‘langani to‘g‘risida maxsus belgi qo‘yish taklif etilgan;

davlat byudjet daromadlari barqarorligini ta‘minlashda neft mahsulotlari hamda ishlab chiqariladigan alkogol va tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

budjetdan mablag‘lar oluvchi tashkilotlarda budjetdan tashqari tijorat xizmatlaridan oladigan daromadlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash taklifi asoslangan;

budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan geologiya xizmatlari, ayrim turdagi pochta xizmatlari (markalar, otkritkalar, konvertlar) hamda ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlar realizatsiyasi bo‘yicha aylanmalardan qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS)dan berilgan imtiyozlarni bekor qilishning maqsadga muvofiqligi taklifi asoslangan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) guvohnomasining amal qilish muddati to‘xtatilgan davrda soliq to‘lovchilar tomonidan haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha to‘langan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasining hisobga qabul qilinishi taklifi asoslangan;

import qilingan tovarlar uchun to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ini (QQS) o‘zaro hisobga olishni soliq va bojxona organlari o‘rtasida avtomatik tarzda amalga oshirish mexanizmini joriy etish taklifi asoslangan;

alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda aksiz solig‘i aksiz to‘lanadigan mahsulot tarkibidagi etil spirtining ulushi bo‘yicha alkogol mahsulotlarining soliq bazasini hisoblashda o‘lchov birligini o‘zgartirish va aksiz solig‘i stavkalarini joriy indeksatsiya qilish taklifi asoslangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, foydalanilgan tahliliy materiallar va statistik ma‘lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi, xalqaro moliya institutlari va boshqa xorijiy

tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, tadqiqotlar aniq normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy ma'lumotlar, xususan, korxonalarining moliyaviy va soliq hisobotlari tahliliga asoslanganligi hamda ishlab chiqilgan takliflarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bilvosita soliqlar, jumladan, aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'ini tahlil qilishga doir nazariy-metodologik yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, bu esa davlat budjeti daromadlarini barqaror shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu natijalar zamonaviy soliq tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni chuqur o'rganish va tahlil qilish, shuningdek, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ilmiy-uslubiy asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lanadigan bilvosita soliqlarning amaldagi holatini chuqur tahlil qilishda hamda ushbu soliq turlarini takomillashtirish bo'yicha maqsadli va samarali chora-tadbirlar tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiz solig'ini hisoblash va undirish tizimini zamonaviy talablar asosida isloh qilish, unda shaffoflikni ta'minlash, soliq ma'murchiligini avtomatlashtirish orqali davlat budjeti daromadlarini barqarorligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Tavsiyalar qonunchilik bazasini takomillashtirish, aksiz solig'i stavkalarini qayta ko'rib chiqish, ularni iqtisodiy asoslangan holda belgilanishi yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish jarayonida ham foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davlat byudjeti daromatlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

fiskal yo'qotishlarni minimallashtirish maqsadida tijorat xususiyatiga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlarni bekor qilish taklifi »Soliq va byudjet siyosatining 2024 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2023-yil 30-dekabrda O'RQ-812-son qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 3-avgustdagi 76747-sonli dalolatnomasi). Natijada, byudjet mablag'laridan tashqari asosiy daromadiga aylangan Oliy ta'lim muassasalari kontrakt to'lovlari mablag'lari, sog'liqni saqlash tizimidagi pullik xizmatlar mablag'lari, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ota-onalar badal pullari va boshqalarni soliqqa tortish, hamda byudjetga 24,0 mlrd.so'mdan ortiq mablag' undirilgan;

byudjet mablag'lari hisobidan har yillik mineral xom-ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko'rsatiladigan xizmatlari bo'yicha aylanmalardan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozni bekor qilish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O'RQ-812-son «Soliq va byudjet siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va

qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi» qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 3-avgustdagi 76747-sonli dalolatnomasi). Natijada, asosiy daromadiga aylangan pochta markalari sotishdan, milliy gvardiya pullik xizmati va boshqalarni soliqqa tortilgan va byudjetga 27,8 mlrd so‘m mablag‘ undirilgan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i guvohnomasining amal qilish muddati to‘xtatilgan davrda hisobga qabul qilinmagan, aslida esa olingan tovar va xizmatlar bo‘yicha to‘langan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan, guvohnoma amal qilishi tiklangan taqdirda, soliq to‘lovchi va uning kontragentlari tomonidan ushbu davr uchun soliq hisobida aniqlik kiritish (to‘g‘rilash) imkonini beruvchi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish taklifi O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 2023-yil 30-dekabrda O‘RQ-812-son qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 3-avgustdagi 76747-sonli dalolatnomasi). Natijada, guvohnoma muddati to‘xtatilganda hisobga olingan zachyot summasini qayta hisob kitob qilinishi va qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilariga zachyot summani zarariga olib bormaslik kabi engillik yaratish orqali, davlat byudjetiga 2024-yilda 2023-yilga nisbatan bilvosita soliqlardan 5015,1 mlrd.so‘m ko‘p mablag‘ tushishiga olib kelingan;

soliq va bojxona organlari tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘ini o‘zaro hisobga olishda soliq to‘lovchi import amaliyotini amalga oshirayotganda bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish vaqtida qo‘shilgan qiymat solig‘i qoplanishi lozim bo‘lgan summa hisobidan to‘langani to‘g‘risida maxsus belgi qo‘yish taklifi O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 2023-yil 29-dekabrda O‘RQ-891-son qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 3-avgustdagi 76747-sonli dalolatnomasi). Natijada, soliq va bojxona organlari tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘ini o‘zaro hisobga olish, import qilish, bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish vaqtida soliq to‘lovchi, soliq organi va bojxona organi o‘rtasidagi harakatlar 1-2 kunda amalga oshirilgan;

davlat byudjet daromadlari barqarorligini ta‘minlashda neft mahsulotlari hamda ishlab chiqariladigan alkogol` va tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-812-son «Soliq va byudjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 3-avgustdagi 76747-sonli dalolatnomasi). Natijada, neft mahsulotlari hamda ishlab chiqariladigan alkogol` va tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘idan byudjetga qo‘shimcha 38,9 mlrd so‘m mablag‘ undirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami

21 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola chop etilgan

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya asosiy matnining hajmi 224 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzusining ilmiy-nazariy va amaliy dolzarbligi asoslab berilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlashtirilgan, maqsad va vazifalar belgilab berilgan hamda ularni hal etishda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot mavzusining O‘zbekiston Respublikasidagi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bilan uyg‘unligi hamda olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yuzasidan asoslangan xulosalar berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliy faoliyatga joriy qilinishi imkoniyatlari va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi — «**Bilvosita soliqlarning iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari**» deb nomlanib, unda bilvosita soliqlar, jumladan, aksiz solig‘i konsepsiyasi, uning iqtisodiy tartibga solishdagi o‘rni, fiskal va qayta taqsimlovchi funksiyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Soliqlar orqali davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatish mexanizmlari xorijiy va milliy iqtisodchilarning ilmiy qarashlari asosida tahlil qilingan.



1-rasm. Bilvosita soliqlar ta‘siri⁸

⁸ Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan.

Bilvosita soliqlar iqtisodiy adabiyotlarda davlat budjetining asosiy daromad manbai sifatida e'tirof etiladi. Ular, asosan, iste'mol qilinayotgan mahsulotlar va xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi va oxirgi iste'molchi tomonidan bilvosita tarzda to'lanadi. Bu soliqlar to'g'ridan-to'g'ri emas, balki narxlar orqali undirilganligi sababli «bilvosita» deb nomlanadi.

Dunyo iqtisodchilaridan A.Laffer (Laffer Curve) bilvosita soliqlarning haddan tashqari ko'tarilishi soliq tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. J.Stiglitz esa bilvosita soliqlarni ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish uchun qayta taqsimlovchi mexanizm sifatida ko'radi, biroq bu soliqlar kambag'allar yelkasiga ko'proq tushishini ham qayd etadi.

P.Samuelson va W.Nordhaus kabi olimlar esa bilvosita soliqlarni iqtisodiy siyosatning passiv, ammo samarali vositasi deb baholagan, ya'ni ular narxlar orqali bozorni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonlik olimlardan A.Xolboev, R.Jo'raev, Sh.Qurbonov va boshqa soliqshunoslar bilvosita soliqlarning fiskal salohiyati, ularning iqtisodiyotga bevosita emas, balki narxlar va iste'mol orqali ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlab o'tishgan. Shu bilan birga, ular mamlakatimizdagi aksiz solig'i stavkalarining ijtimoiy-iqtisodiy xatti-harakatlarga ta'sirini o'rganib, fiskal foydadan tashqari, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va tartibga soluvchi mexanizm sifatida ham baholaganlar.

Fikrimizcha ham soliqlarga ko'p funksiyalilik xosdir. Bunda quyidagi asosiy funksiyalarni keltirib o'tishimiz mumkin: fiskal, nazorat, taqsimlash va tartibga solish. Mamlakatda soliqlarning tartibga solish funksiyasini qo'llanishida ayrim ustuvor sohalarni (faoliyatni) qo'llab-quvvatlash maqsadida rag'batlantirish funksiyasidan ayrim ustuvor bo'lmagan yo'nalishlarni cheklash maqsadida cheklovlardan foydalaniladi. Soliqlarning rag'batlantirish va cheklov funksiyalarini umumlashtirgan holda tartibga solish funksiyasi sifatida qo'llash mumkin. Umumiy holatda soliqlarning funksiyalarini quyidagi rasm orqali aks ettirish mumkin.




2-rasm. Soliq funksiyalari⁹

⁹ Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan.

Soliqlarning fiskal, taqsimlovchi, nazorat va tartibga soluvchi funksiyalari o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lib, ularning iqtisodiyotga ta’siri mantiqiy va tahlil asosida yoritiladi. Soliqlarning tartibga solish vazifasini amalga oshirishda rag‘batlantiruvchi va cheklovchi funksiyalar o‘rtasidagi muvozanat mustahkamlashtirilishi davlat soliq siyosatining samaradorligini ta’minlashda muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlar vositasining boshqa iqtisodiy instrumentlarga nisbatan afzalliklari asoslab berilgan. Jumladan, soliq mexanizmlarining uzoq muddatli ta’sir kuchiga egaligi, davlat budjetini barqaror moliyalashtirishdagi ahamiyati va tadbirkorlik muhitini to‘g‘ri yo‘naltirishdagi roli ilmiy asoslangan holda ko‘rsatilgan.

Aksiz solig‘i mamlakatimizda davlat budjeti daromadlarini ta’minlashning asosiy manbalaridan biriga aylanib ulgurdi. So‘nggi yillarda, ayniqsa 2020–2023-yillar mobaynida, aksiz solig‘i stavkalari har yili qayta ko‘rib chiqilmoqda. Xususan, alkogol va tamaki mahsulotlariga, avtomashinalarga, yoqilg‘i va gaz mahsulotlariga nisbatan aksiz stavkalari bosqichma-bosqich oshirildi. Bu o‘zgarishlar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, zararli mahsulotlar iste’molini cheklash va davlat budjet tushumlarini barqarorlashtirishga qaratilgan. 2023-yil yanvar holatiga ko‘ra, benzin va gaz mahsulotlariga nisbatan aksiz solig‘i stavkalari o‘rtacha 10–15 foizga oshirildi.



3-rasm. Aksiz solig‘i tushumlari va o‘shish sur‘atlari bo‘yicha 2017–2024 yil ma’lumotlari¹⁰

Keltirilgan ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri bo‘lgan aksiz solig‘i 2017–2024-yillar mobaynida salmoqli o‘shish sur‘atlarini namoyon etgan. Ushbu davr mobaynida tushumlar hajmi 9,2 trln so‘mdan (2017-yil) 17,8 trln so‘mga (2024)

¹⁰ Muallif tomonidan Soliq qo‘mitasi rasmiy (www.soliq.uz) saytlaridagi ochiq ma’lumotlar asosida mustaqil tuzildi.

yetgan bo‘lib, bu soliq turi byudjetga barqaror tushum manbai sifatida xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Ushbu bobda bilvosta soliqlarning nazariy asoslari, uning amaliy funksiyalari, iqtisodiyotdagi o‘rni va samaradorligi chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda keltirilgan ilmiy qarashlar va statistik tahlillar bilvosita soliqlarni, xususan aksiz solig‘ini joriy etish va uning natijalarini baholashda muhim ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, soliqlarga xos bo‘lgan funksiyalarni bajarish bilan birlikda bilvosita soliqlar alohida xususiyatlarga ham ega bo‘lib, mazkur xususiyatlar ma‘lum ma‘noda bilvosita soliqlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan soliqlarning e‘tirof etilgan to‘rtta funksiyasidan, ikkitasi bilvosita soliqlarda to‘liqroq, kengroq namoyon bo‘ladi. Bilvosita soliqlarning fiskal funksiyasi mazkur soliqlar stavkalarining belgilanishidan tortib, to ularning undirilishigacha bo‘lgan bosqichlarda yaqqol nomoyon bo‘ladi. Ayniqsa bunda aksiz solig‘ining yana bir muhim funksiyasini ichki bozorni, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash nuqtai nazaridan keng qo‘llaniladigan iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasini alohida keltirish mumkin.

Dissertatsiyaning **«Qo‘shilgan qiymat solig‘i, uning avtomatlashtirilgan tizimining hozirgi holati va muammolari»** deb nomlangan ikkinchi bobida raqamli soliq ma‘murchiligining samaradorligi, uning amaliy tatbiqi va qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) tushumlari dinamikasi to‘liq iqtisodiy tahlil etilgan. QQSni boshqarishda raqamlashtirishning roli, uning texnologik infratuzilmasi va axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvi nazariy va amaliy nuqtai nazardan chuqur yoritilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy soliq ma‘murchiligini samarali tashkil etishda faqat texnologik yechimlarni joriy etish yetarli emas. Ushbu jarayonda ma‘lumotlarning ishonchliligi, real vaqtda kuzatish imkoniyatlari va avtomatik tarzda hisobot shakllantirish tizimlarining mavjudligi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda soliq organlarining soliq to‘lovchilar faoliyatini uzluksiz monitoring qilishi, ma‘lumotlarni tezkor tahlil qilish orqali tavakkal darajasini baholash va nazoratni kuchaytirishga asos bo‘lmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar orqali yig‘ilgan ma‘lumotlarning to‘g‘ri tahlil qilinishi soliq bo‘yicha to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

QQSning raqamli boshqaruvi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar soliq siyosatining shaffoflik va fiskal intizomga erishishga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda elektron hisob-fakturalar, QR-kodli kassa apparatlari, raqamli tovar aylanmasi platformalari orqali soliq to‘lovchilar faoliyatini real vaqtda kuzatish, ushbu jarayonda yashirin aylanmalarni aniqlash imkoniyatlari yaratib berilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, soliq bazasini kengaytirish, soliq tushumlarini oshirish va soliq siyosatini oqilona shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. QQS ma‘murchiligining raqamlilashuvi soliq organlari uchun strategik vositaga aylanib, mamlakatda soliq intizomini kuchaytirish, iqtisodiyotni «yashirin» sektoridan chiqarish va adolatli soliq yukini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

2014-2024-yillarda davlat budjet daromatlari ko'rsatkichlari¹¹

№	Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1.	Bevosita soliqlar	8 093,10	9 450,90	11 254,70	12 954,60	17 184,20	31 784,70	45 206,90	58930,40	64 447,10	73 103,60	90833
2.	Bilvosita soliqlar	16 852,30	19 193,80	21130,70	26 133,20	41 280,40	46 427,20	46 428,40	56 290,40	71 390,20	83325,8	88340,9
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	4 311,50	4 816,10	5 306,20	6 867,40	12 663,40	19 680,70	21 257	23 036,40	23 912,80	28079,5	36362,6
4.	Boshqa daromadlar va soliqsiz tushumlar	2 473,70	3 032,40	3 351,80	3 725,80	7 971	14 272,80	20 045,80	26 542,20	42 113,70	47211,8	58886,3
5.	Jami daromadlar	31 730,60	36 493,20	41 043,40	49 681,00	79 099,00	112 165,40	132 938,10	164 799,40	201 863,80	231 720,70	274 422,80

Birinchi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlar muhim moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. So'nggi o'n yillikdagi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bilvosita soliqlarning umumiy budjet daromadlaridagi ulushi barqaror ravishda yuqorilab bormoqda va ular davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashda salmoqli o'ringa ega.

2014 yilda bilvosita soliqlar 16 852,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yil uchun 88 340,9 mlrd so'mni tashkil etib, bu sohada izchil o'sish tendensiyasi saqlanib qolganini ko'rsatmoqda. 2014 yildan 2024 yilgacha bilvosita soliqlar hajmi deyarli 5,2 baravarga oshgan.

Bilvosita soliqlar, asosan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz solig'i, bojxona boji va boshqa turdagi iste'molga yo'naltirilgan soliqlardan iborat bo'lib, ular aholining iste'mol darajasi va iqtisodiy faolligiga bevosita bog'liqdir. Aynan ushbu turdagi soliqlar davlatga iqtisodiy o'sishdan kelib chiqadigan daromadlarni samarali ravishda ko'p sarf qilinmasdan yig'ib olish imkonini beradi.

2023 yil va 2024 yil davomida QQSni avtomatik hisobga olish tizimining joriy etilishi, aksiz solig'i stavkalarining indeksatsiyasi va import mahsulotlariga nisbatan nazoratning kuchaytirilishi bilvosita soliqlarning tushumini yanada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

¹¹ Muallif tomonidan <https://openbudget.uz/incomes> ma'lumotlari asosida maustaqil tuzuldi.

Bilvosita soliq tushumlari – qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni bekor qilish taklifgacha va taklifdan keyingi holati tahlili¹²

№	Soliq turi	2023-yil (mlrd so‘m)	2024-yil (mlrd so‘m)	O‘sish (mlrd so‘m)	Izoh
1.	Bilvosita soliqlar (jami)	83 325,8	88 340,9	5 015,1	QQS imtiyozlarining bekor qilinishi, soliqqa tortish bazasining kengayishi hisobiga o‘sdi
1.1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS)	57 885,3	59 280	1 394,7	Davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladigan xizmatlar QQSga tortila boshlandi
1.2	Aksiz solig‘i	15 834,4	19 059,9	3 225,5	Aksiz stavkalari ko‘tarilgan bo‘lishi mumkin, ayrim mahsulotlar qayta tasniflangan
1.3	Bojxona boji	9 606,1	10 001	394,9	Import hajmining o‘sishi yoki tarif o‘zgarishlari natijasi bo‘lishi mumkin
QQS imtiyozlarini bekor qilishdan qo‘shimcha tushum			+27,8	Geologiya, ilmiy-tadqiqot ishlari, pochta mahsulotlari, xizmatlar soliqqa tortildi	

Ikkinchi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2023 yilga nisbatan 2024 yilda bilvosita soliqlar tushumi 5,01 trillion so‘mga oshgan. Ushbu o‘sish turli ichki va tashqi omillar bilan izohlanadi. Jumladan, bu holat, birinchi navbatda, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) bo‘yicha avval amal qilgan soliq imtiyozlarining bosqichma-bosqich bekor qilinishi bilan bevosita bog‘liq. Amalda imtiyozlarning qisqartirilishi budjetga tushadigan mablag‘lar hajmini ko‘paytirishga xizmat qildi. Fikrimizcha budjet mablag‘lari hisobidan har yillik mineral xom-ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko‘rsatiladigan geologiya xizmatlari bo‘yicha aylanma, pochta markalari, markali otkritkalar, konvertlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma, budjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmalardan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni bekor qilish orqali qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasini kengaytirishga olib keladi.

Mazkur bobda shuningdek QQS guvohnomasining amal qilish muddati to‘xtatilganligi munosabati bilan hisobga qabul qilinmagan, haqiqatda olingan tovar (xizmat)lar bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasiga, guvohnomaning amal qilish muddati tiklangan taqdirda, soliq to‘lovchida va uning xaridorlarida guvohnomaning amal qilishi to‘xtatib turilgan davr uchun tuzatishlar kiritilishi (hisobga qabul qilinishi)ni nazarda tutuvchi tartib joriy etilishi maqsadga muvofiqligi tahlili keltirilgan.

¹² Muallif tomonidan <https://openbudget.uz/incomes> ma’lumotlari asosida maustaqil tuzuldi.

QQS guvohnomasi amal qilmagan davrda to'lovlar va hisobga qabul qilish holatlarining tahlili¹³

№	Holat / Parametr	Taklifgacha (oldin)	Taklifdan keyin (keyinchalik tiklanishi sharti bilan)
1.	QQS guvohnomasi holati	Bloklangan yoki amal qilmayotgan davr mavjud	Blok ochilgandan keyin QQS hisoblashga ruxsat beriladi
2.	Xaridor himoyasi	To'langan QQS qaytarilmaydi, xaridor moliyaviy zarar ko'radi	Tiklanganidan so'ng to'lov summasi QQS hisobiga qabul qilinadi
3.	Savdo shaffofligi va nizo imkoniyati	Bloklangan korxonadan xaridda nizolar, noaniqliklar bo'lgan	QQS summasi qayta tiklanganda nizo va noaniqliklar kamayadi
4.	Soliq hisobini qarama-qarshiliklari	Xaridorlar QQSni hisobga ololmas, hujjatlarda farq paydo bo'ladi	Keyinchalik tuzatish kiritilib, QQS hisobi muvofiqlashtiriladi
5.	Soliq to'lovchilarga ta'siri	Katta korxonalar uchun soliq yukining o'sishi yuz beradi	Keyingi davrda QQS summasi balansga olinadi, moliyaviy tenglikni ta'minlashga ko'mak beradi

Uchinchi jadvaldan ko'rinib turibdiki taklif kiritilishidan avval, soliq to'lovchining QQS guvohnomasi bloklangan bo'lsa, u holda ushbu subyektdan xarid qilingan tovar va xizmatlar uchun to'langan QQS summasi xaridor tomonidan hisobga olinmas edi. Bu esa soliq to'lovchilar, ayniqsa, tadbirkorlar va yirik korxonalar uchun jiddiy moliyaviy yo'qotishlarga olib kelardi. Xaridor o'z vaqtida soliq to'lagan bo'lsa-da, guvohnoma amal qilmayotgani sababli uni QQS hisobidan chiqarib tashlashga majbur bo'lardi. Mazkur taklif asosida endilikda, agar QQS guvohnomasining amal qilish muddati tiklansa, xaridor va sotuvchi o'rtasidagi oldingi davr bo'yicha ham QQS summasi hisobga olinishi mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida moliyaviy noaniqliklar va nizoli holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Yangi tartib soliq hisobini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi. Qarzdorlik yoki hisobotlardagi farqlar avtomatik tuzatishlar orqali bartaraf etiladi. Bu esa, xaridorning QQS summasini to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish imkoniyatini yaratadi va soliqqa oid hujjatlar bir xillikda yuritilishini ta'minlaydi.



4-rasm. 2024-yildan boshlan QQSni o'zaro hisobga olish tartibi¹⁴

¹³ Muallif tomonidan berilgan taklif yuzasidan mustaqil ishlab chiqildi.

¹⁴ Muallif tomonidan taklif natijasida mustaqil yasildi.


4-rasmda ko‘rinib turibdiki amaldagi tartibga ko‘ra, agar soliq to‘lovchining qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) guvohnomasining amal qilish muddati to‘xtatilgan bo‘lsa, bu davr mobaynida u tomonidan haqiqatda olingan tovar (ish, xizmat)lar uchun to‘langan (yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan) QQS summasi hisobga olinmaydi. Natijada, QQS guvohnomasi amal qilish muddati vaqtincha to‘xtatilgan, biroq faoliyatini davom ettirgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar katta moliyaviy yo‘qotishlarga duch kelmoqda. 2023 yil yakunlariga ko‘ra, bunday holat 11 325 ta soliq to‘lovchida kuzatilgan bo‘lib, ulardan 8 235 tasi mikro va kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Shuningdek, QQSni hisobga qabul qilolmagan xaridor tashkilotlar soni 18 000 dan ortiq bo‘lib, umumiy hisobda QQS hisobga olinmagan summalar 1,2 trln so‘mdan oshgan. Bu esa nafaqat soliqqa tortish tizimida nomutanosiblikni yuzaga keltirgan, balki tadbirkorlarning aylanma mablag‘lariga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi importyor soliq to‘lovchilar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha ortiqcha to‘lovlar, ya‘ni eksport operatsiyalari bo‘yicha nolli stavkalarining qo‘llanishi natijasida yuzaga keladigan QQS bo‘yicha manfiy qoldiqlar hisobidan tovarlarni import qilish vaqtida hisoblangan QQS bilan o‘zaro hisob kitoblarni soliq va bojxona organlari o‘rtasida avtomatik tarzda amalga oshirish mexanizmini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligini zaruriyat qilib qo‘ymoqda. Mazkur taklifning joriy etilishi ikki vakolatli organlar o‘rtasida elektron shaklda solishtirish dalolatnomasi tuzilib, keyingi oyning 3-sanasiga qadar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga yuboriladi hamda bir necha murojaatlardan iborat soliq to‘lovchi, soliq organi va bojxona organi o‘rtasidagi harakatlar 1-2 kunda amalga oshirilishiga erishiladi.

QQS guvohnomasi amal qilish muddati to‘xtatilgan davr mobaynida haqiqatda olingan tovar (ish, xizmat)lar uchun to‘langan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan QQS summalarini guvohnoma muddati tiklangach, soliq to‘lovchi va uning xaridorlari tomonidan hisobga olish imkoniyatini yaratish taklifi ilgari surilgan. Mazkur tartib joriy etilsa, QQS tizimida adolat va shaffoflik ta‘minlanadi, shuningdek, soliq to‘lovchilarning moliyaviy barqarorligi va faoliyatining uzluksizligi qo‘llab-quvvatlanadi. Natijada, bu o‘zgarish 2025-yil davomida 15 mingdan ortiq QQS to‘lovchilarining manfaatlariga xizmat qilishi, 1 trln so‘mdan ortiq QQS summasi hisobga olinishi va tadbirkorlik subyektlarining aylanma mablag‘lari tiklanishi kutilmoqda. Shu bilan birga, mazkur taklif fiskal intizomni kuchaytirish, QQS tizimida qatnashuvchilarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash hamda umumiy soliq tushumlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ikkinchi bobda QQS tizimining amaliy holati, mavjud imkoniyatlari va cheklolari hamda avtomatlashtirilgan soliq tizimining samaradorligi xolis tahlil qilingan. O‘rganishlardan kelib chiqib, ushbu tizimning yanada takomillashtirilishi, soha bo‘yicha intellektual tahlil tizimlarini joriy etish, sohalar kesimida differensial yondashuvlarni qo‘llash va real vaqtda ishlovchi ma‘lumotlar bazasini mustahkamlash bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.


Dissertatsiyaning «**O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida aksiz solig‘ini hisoblash va undirish mexanizmining holati va rivojlanish tendensiyalari**» deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida fiskal siyosatning samaradorligini oshirishda aksiz solig‘i muhim rol o‘ynaydi. Ushbu soliq turi orqali nafaqat budjet daromadlarining asosiy

manbalari shakllantiriladi, balki ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, iste'mol strukturasi ta'sir ko'rsatish va iqtisodiyotdagi ekologik standartlarni rag'batlantirish kabi muhim vazifalar bajariladi.



5-rasm. Aksiz solig'i stavkalarini 10%ga indeksatsiya qilish¹⁵

5-rasmdan ko'rib turibdiki, neft mahsulotlari hamda ishlab chiqariladigan alkogol va tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i stavkalarini 10%ga indeksatsiya qilish taklifi 2022 yil 30 dekabrda O'zbekiston Respublikasining O'RQ-812-sonli «Soliq va budjet siyosatining 2023 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuni asosida 2023 yil 1 fevraldan boshlab amaliyotga joriy etildi.



6-rasm. «O'zbekiston Shampani» kompaniyasida 2015-2024 yillar davomida realizatsiya qilingan aroq va liker mahsulotlari tahlili¹⁶


¹⁵ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tuzilgan.

¹⁶ Muallif tomonidan Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida mustaqil tuzilgan.

Mazkur taklifning amaliyotga tadbiiq etilishi orqali neft mahsulotlari, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari tomonidan to‘lanadigan aksiz solig‘i miqdori oshirildi. Bu esa, bir tomondan, mazkur mahsulotlar iste‘molini tartibga solishga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, budjetga tushadigan tushumlarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

Shu munosabat bilan, 2015–2024 yillar davomida O‘zbekistonda aksiz solig‘i tizimida amalga oshirilgan islohotlar, hisoblash va undirish mexanizmlarining takomillashuvi hamda iqtisodiy muhitga ta‘sir ko‘rsatayotgan tendensiyalar atroflicha tahlil etildi.

Avvalo, aksiz solig‘i to‘lovchilarining huquqiy maqomi, faoliyat yo‘nalishi va soliq solish obyektii bilan bog‘liq holatlar aniiq me‘yoriy-huquqiy asoslarga tayanadi. Ishlab chiqaruvchi, import qiluvchi va oddiiy shirkatlar shaklida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar aksiz solig‘ini to‘lovchi sifatida hisoblanadi. Ularning barchasi, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan, mol-mulk egasi va soliq obyektiihariga ega bo‘lishi shart.



7-rasm. 2019-2024 yillarda jami Soliq idoralari va bojxona idoralari tomonidan undirilgan aksiz solig‘i ulushining o‘zgarish dinamikasi¹⁷

Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aksiz solig‘i asosan soliq idoralari va bojxona organlari orqali undiriladi. 2019–2024 yillardagi ma‘lumotlarga ko‘ra, soliq organlari orqali tushumlar muntazam ravishda oshgan. Ayniqsa, 2023–2024 yillardagi keskin o‘shish ishlab chiqarish hajmining ortishi, raqamlashtirish va elektron nazorat tizimlarining joriy etilishi bilan izohlanadi. Elektron hisob-fakturalar, NKM va markirovkalash orqali yashirin tushumlar ochiqashtirilib, rasmiy tushum hajmi ko‘paydi.

¹⁷ Muallif tomonidan Davlat soliiq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida mustaqil tuzilgan.

Ushbu bobda alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda aksiz solig'i aksiz to'lanadigan mahsulot tarkibidagi etil spirtining ulushidan kelib chiqqan holda ishlab chiqariladigan alkogol mahsulotlarining o'lchov birligi «Litr» (ilgari «Dall» bo'lgan) deb belgilash taklif etilgan.

Respublika bo'yicha bilvosita soliqlar tushumini umumiy tahlili olganda bojxona organlari orqali tushumlar esa barqaror holatda bo'lib, asosan import hajmi, narx dinamikasi va soliq imtiyozlari bilan bog'liq. 2022 yilda import hajmi oshgani tufayli tushumda sezilarli sakrash kuzatilgan, ammo 2024 yilda biroz pasayish qayd etilgan. Bu global bozordagi narx o'zgarishlari va ichki ishlab chiqarishning o'sishi bilan bog'liq.

Aksiz tushumlarining iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi holati ham tahlil qilindi. Jumladan, «O'zbekiston shampani» AJ misolida 2015–2024 yillar davomida realizatsiya hajmlari va tushumlar dinamikasi izchil oshgani qayd etildi. Aynan qat'iy stavkalarga o'tish, advalor stavkalarining cheklanganligi va prognozlash imkoni korxonalar soliq yukini barqarorlashtirishda muhim omil bo'ldi.

4-jadval

2015-2024 yillarda «O'zBat» AJ qo'shma korxonasida aksiz solig'i bo'yicha hisoblangan va to'langan soliq summalarining tahlili¹⁸, (so'mda)

Yillar	To'langan	Hisoblangan	Farqi (+, -)
2015-yil	987 253 771 711,19	987 254 255 361,60	483 650,41
2016-yil	1 105 547 336 742,65	1 105 547 878 344,46	541 601,81
2017-yil	1 224 304 913 336,27	1 224 305 513 116,79	599 780,52
2018-yil	1 326 440 859 519,26	1 326 441 509 335,63	649 816,37
2019-yil	1 391 858 194 668,68	1 391 858 876 532,66	681 863,98
2020-yil	1 430 481 186 709,85	1 430 481 887 495,03	700 785,18
2021-yil	1 607 035 830 428,33	1 607 048 708 822,07	12 878 393,74
2022-yil	1 636 278 585 558,88	1 636 285 766 988,62	7 181 429,74
2023-yil	1 821 903 137 437,32	1 821 957 154 896,98	54 017 459,66
2024-yil	2 115 808 475 767,67	2 115 901 252 313,04	92 776 545,37
Jami	14 646 912 291 880,10	14 647 082 803 206,90	170 511 326,78

Xuddi shunday tahlil «O'zBat» AJ qo'shma korxonasida ham o'tkazilib, 2015–2024 yillar oralig'ida hisoblangan va to'langan aksiz soliqlari orasida ijobiy farq - ya'ni ortiqcha to'lov qayd etildi. Bu holat kompaniyada soliq intizomi va hisob-kitob tizimlarining shaffoflashganidan dalolat beradi.

Aksiz solig'i tizimida amalga oshirilgan islohotlar, uning hisoblash mexanizmlarining modernizatsiya qilinishi va raqamli texnologiyalar asosida undirish amaliyoti respublikada fiskal barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, elektron ma'lumotlar bazasi, avtomatlashtirilgan nazorat, shakllantirilgan soliq hisobotlari va real vaqtdagi nazorat tizimlari orqali ushbu soliq turining iqtisodiyotdagi roli yanada mustahkamlanmoqda. Keyingi yillarda ushbu yo'nalishda sektorlararo tahlillar,

¹⁸ Muallif tomonidan korxonaning hisobot ma'lumotlari asosida hisoblandi.

soliq stavkalarida differentsiatsiya va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun rag‘batlantiruvchi mexanizmlarning kengaytirilishi lozim.

Dissertatsiyaning «**Davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta’minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari**»ga bag‘ishlangan to‘rtinchi bobida bugungi kunda davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta’minlash masalasi har qanday mamlakat fiskal siyosatiing markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu barqarorlikni ta’minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimining o‘rni tobora ortib bormoqda. Bilvosita soliqlar, xususan, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS), aksiz solig‘i va bojxona bojlari nafaqat davlat daromadlarining salmoqli qismini shakllantiradi, balki iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, iste‘molni boshqarish hamda fiskal intizomni mustahkamlashda muhim vosita vazifasini bajaradi. Shu bois, mazkur bobda aynan ushbu soliqlar bo‘yicha amaldagi tendensiyalar, ularning iqtisodiyotga ta’siri hamda kelgusida yanada samarali soliq tizimini shakllantirish bo‘yicha takliflar batafsil yoritiladi. Budjetdan mablag‘lar oluvchi tashkilotlarning yildan yilga moliyaviy mustaqilligi oshirib borilmoqda, shu o‘rinda oliy ta’lim tizimida xozirgi kunda 40 yaqin davlat oliy ta’lim tashkilotlariga moliyaviy mustaqillik berilgan, bunda budjetdan moliyalashtirish tartibida ham tub islohotlar amalga oshirilib, budjet mablag‘lari ajratilishida grant bo‘yicha qabul qilingan talabalarga davlat buyurtmachi sifatida qatnashib har bir talaba uchun belgilangan mablag‘larni oliy ta’lim tashkilotiga o‘tkazib beradi. Shu bilan birga budjet mablag‘laridan tashqari budjetdan tashqari tijorat xizmatlaridan oladigan daromadlarini oshirish yuzasidan ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu munosabat bilan budjetdan mablag‘lar oluvchi tashkilotlarning faoliyat turlari bo‘yicha berilgan imtiyozlarni saqlab qolgan holda budjet mablag‘laridan tashqari tijorat xususiyatiga ega daromadlariga barcha soliqlar umumiy imtiyozlarni bekor qilinishi asoslandi.


5-jadval

Soliq tushumlari taklifgacha va taklifdan so‘nggi holat tahlili¹⁹, (mlrd so‘mda)

№	Soliq turi	2023-yil (taklifgacha)	2024-yil (taklifdan keyin)	O‘sish (+/-)
1.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	99 725,7	114 239,2	+14 513,5
2.	Foyda solig‘i	35 211,4	39 739,1	+4 527,7
3.	Aksiz solig‘i	13 837,7	13 657,0	-180,7
4.	Yer qa‘ridan foydalanganlik solig‘i	12 326,3	10 918,2	-1 408,1
5.	Jismoniy shaxslar daromad solig‘i	13 047,1	15 820,7	+2 773,6
6.	Aylanmadan olinadigan soliq	6 733,9	7 546,1	+812,2
7.	Mol-mulk solig‘i	3 365,7	3 858,7	+493,0
8.	Yer solig‘i	1 780,6	2 092,2	+311,6
9.	Resurs to‘lovlari va yig‘imlar	605,1	768,1	+163,0
Jami tushumlar		186 633,5	208 639,3	+22 005,8

¹⁹ Muallif tomonidan <https://openbudget.uz/incomes> ma’lumotlari asosida maustaqil tuzuldi.

Beshinchi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2023 va 2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tushumlari tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, soliq siyosatida amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, QQS imtiyozlarini qisqartirish va soliq ma'murchiligini kuchaytirish natijasida bir qator soliq turlaridan tushumlar sezilarli darajada oshgan. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tushumlari 2023 yildagi 99,7 trln so'mdan 2024 yilda 114,2 trln so'mga ko'tarilib, 14,5 trln so'mdan ortiq o'sishga erishildi. Bu o'sish QQS bo'yicha keshbek tizimi, nazorat-kassa mashinalarining keng joriy qilinishi, shuningdek elektron soliq hisob-fakturalari tizimining faol ishlashi bilan bog'liq. Ayniqsa, 2024 yil 1 yanvardan boshlab, budjet tashkilotlariga ilgari berilgan QQS imtiyozlarining bekor qilinishi, ya'ni ular ham endi barcha soliq to'lovchilar qatorida QQS to'lash majburiyatiga ega bo'lishi bu o'sishning asosiy sababi sifatida e'tirof etiladi. Dissertatsiyada amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, fiskal yo'qotishlarni minimallashtirish maqsadida tijorat xususiyatiga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlarni bekor qilish maqsadga muvofiq.



8-rasm. 2019–2024-yillarda QQS, aksiz solig'i va bojxona bojlari tushumlari bo'yicha tahliliy sharhi²⁰.

Avvalo, 2019–2024 yillar davomida QQS, aksiz solig'i va bojxona bojlari tushumlaridagi dinamik o'zgarishlar tahlil qilindi. 2019 yilda QQS tushumlari 33,8 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, pandemiya ta'sirida 2020 yilda bu ko'rsatkich 31,1 trln so'mga pasaydi. Ushbu pasayish asosan iqtisodiy faollikning sustlashuvi, savdo hajmining qisqarishi hamda QQS to'lovchilar faoliyatining vaqtincha to'xtatilgani bilan izohlanadi. Biroq 2021 yildan boshlab QQS tushumlarining sezilarli o'sishi qayd etilgan: 2021 yilda 38,4 trln so'm, 2022 yilda 52,1 trln so'm,

²⁰ Muallif tomonidan Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida mustqil tayyorlandi.

2023 yilda 57,8 trln so‘m va 2024 yilda 58 trln so‘m. Bu o‘shiga birinchi navbatda soliq to‘lovchilar bazasining kengayishi, elektron hisob-faktura tizimi va onlayn nazorat-kassa texnikalari orqali nazoratning kuchaytirilgani hamda QQS stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushirilganiga qaramay, umumiy soliq bazasining o‘shib borishi sabab bo‘lgan.

Aksiz solig‘i tushumlari ham ijobiy dinamika bilan o‘shib borgan. 2019 yilda 10,3 trln so‘mni tashkil etgan aksiz tushumlari 2024 yilga kelib 18,7 trln so‘mga yetgan. Bu o‘shiga neft mahsulotlari hamda ishlab chiqariladigan alkogol va tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i stavkalari 10 % ga indeksatsiya qilinishi taklifining amaliyotga joriy etilishi sabab bo‘lgan. Shu bilan birga, import hajmining ortishi ham bu soliq tushumlarining o‘shishini ta‘minlagan asosiy omillardan biri bo‘lgan.

Bojxona bojlari tushumlari esa 2019 yildagi 2,3 trln so‘mdan 2024 yilda 11,6 trln so‘mgacha yetib, mutlaq ifodada eng tez o‘suvi daromad manbalaridan biriga aylangan. Bu holat asosan import hajmining yildan yilga ortib borayotgani, bojxona imtiyozlarining qisqartirilgani va soliq va bojxona organlari tomonidan QQSni o‘zaro hisobga olishda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi bo‘lgan soliq to‘lovchi import qilishda bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish vaqtida QQS qoplanishi lozim bo‘lgan summa hisobidan to‘langani to‘g‘risida belgi qo‘yish taklifining amaliyotga joriy etilishi bilan izohlanadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu uch turdagi bilvosita soliqlar davlat fiskal siyosatining asosiy tayanch ustunlariga aylangan.

ARIMA regression

Sample: 2017m2 - 2024m4

Number of obs = 87

Log likelihood = -607.5541

Wald chi2(2) = 105.42

Prob > chi2 = 0.0000

Coef.	Std. Err.	z	P> z	[95% Conf. Interval]	Variable
-0.7263426	10.51956	-0.07	0.945	-21.3443 to 19.89161	cons
0.0322163	0.1340943	0.24	0.810	-0.2306037 to 0.2950362	ar.L1
-0.8792344	0.0997373	-8.82	0.000	-1.074716 to -0.6837529	ma.L1
258.8566	9.415246	27.49	0.000	240.403 to 277.3101	/sigma

Ekonometrik yondashuv asosida o‘tkazilgan ARIMA modeli bo‘yicha aksiz solig‘i tushumlarining 2025–2026 yillar uchun prognoz natijalari ushbu tushumlar har yili taxminan 7% atrofida o‘shishini ko‘rsatadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlovchi fiskal mexanizmlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Pooled OLS regressiya natijalari ham QQS tushumlarining yuqori darajada prognoz qilinishi mumkinligini, modelning ishonchli va muvozanatli ekanini ko‘rsatadi ($R^2 = 0.96$).

XULOSA

2015–2024 yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlar tizimida amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning fiskal siyosatini yanada samarali va barqaror mexanizmga aylantirdi. Ushbu soliq turlari davlat budjeti daromadlaridagi ustuvor o‘rni, fiskal va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini samarali bajarayotgani, hamda milliy iqtisodiyotning ichki salohiyatini kengaytirishdagi strategik ahamiyati bilan ajralib turibdi.

Nazariy jihatdan olganda bilvosita soliqlar alohida xususiyatlarga ega bo‘lib, mazkur xususiyatlar ma‘lum ma‘noda bilvosita soliqlarning mohiyatini ochib beradi. Fikrimizcha, bilvosita soliqlarning fiskal funksiyasi mazkur soliqlar stavkalarining belgilanishidan tortib, to ularning undirilishigacha bo‘lgan bosqichlarda yaqqol nomoyon bo‘ladi. Ayniqsa bilvosita soliqlar tarkibida aksiz solig‘ining yana bir muhim funksiyasini ichki bozorni, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalashni nazarda tutuvchi iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish funksiyasini alohida keltirish mumkin

Aksiz solig‘i orqali davlat ichki ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, importini qisqartirish, kontrabanda va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish, aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan maqsadlarga erishdi. Elektron hisob-kitob va raqamli nazorat tizimlarining joriy etilishi esa soliq ma‘muriyatchiligini yangi bosqichga olib chiqildi.

Ilmiy tadqiqotda olingan prognoz natijalariga ko‘ra, 2025–2026 yillarda ham aksiz va QQS tushumlarida o‘shish tendensiyasi saqlanishi kutilmoqda. Bu esa ushbu soliq turlarining davlat budjeti daromadlari, shuningdek mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi muhim o‘rnini yanada mustahkamlanini ta‘minlaydi.

Bilvosita soliqlarning muhim turi aksiz solig‘i siyosatining faol tarzda mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va iste‘mol bozorida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilayotgani qayd etish joiz. Hozirgi islohotlar natijasida O‘zbekiston soliq tizimi jahon talablariga mos, shaffof va raqobatbardosh tuzilmaga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, aksiz solig‘i va QQS nafaqat budjetning barqaror manbai, balki iqtisodiyotni transformatsiya qilishda, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda va milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishda ham strategik instrument sifatida o‘zining hayotiy ahamiyatini namoyon etmoqda.

Davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta‘minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar va o‘rganishlar natijasida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan:

1. CASHBACK tizimini kengaytirish orqali QQS tushumlarini oshirish va norasmiy savdoni kamaytirish.

2. Aksiz solig‘ini soliq yuki bo‘yicha iste‘molchi va ishlab chiqaruvchiga teng taqsimlash uchun elastiklik tahlillarini yuritish.

3. Integratsiyalashgan «Real-time» monitoring tizimi joriy etish: bojxona, soliq va bank tizimlaridagi ma'lumotlar real vaqt rejimida avtomatik integratsiya qilinib, aksiz va QQS bo'yicha aniqlik va tushumlarning ortishi ta'minlanadi.

4. Bojxona va soliq ma'lumotlarini kelib chiqish narxlarini bo'yicha tahlil qilish va aksiz stavkalarini shunga mos tarzda differentsiallashtirish: importdagi narxlar bilan ichki narxlar solishtirilib, turli mahsulotlar bo'yicha asosli aksiz stavkalari belgilanadi.

5. Soliq stavkalari va tushumlar bo'yicha «makro fiskal barqarorlik prognoz tizimi»ni joriy etish: davlat byudjeti prognozlari, inflyatsiya, import hajmi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga asoslangan soliq stavkalarini moslashtirish mexanizmi ishlab chiqiladi.

6. Davlat budjetidan mablag'lar oluvchi tashkilotlariga amalga oshiradigan faoliyatidan kelib chiqib, taqdim etilgan manzilli soliq turlari bo'yicha imtiyozlarni saqlanishi va mazkur muassalarni budjet tashqari tijorat xususiyatiga ega daromadlariga nisbatan barcha soliq turlaridan berilgan umumiy imtiyozlarni bekor qilinishi maqsadga muvofiq.

7. Vakolatli idoralar soliq va bojxona organlarida tashqi faoliyat bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilarning QQS bo'yicha o'zaro hisob kitoblarini avtomatik tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi tartibning joriy etilishi soliq to'lovchi, soliq organi va bojxona organi o'rtasidagi amalga oshiriladigan harakatlarning keskin qisqartirishga olib keladi.

8. QQS to'lovchi guvohnomasi bekor qilingan yuridik shaxslarda, guvohnomaning amal qilish muddati tiklangan taqdirda, soliq to'lovchida va uning xaridorlariga sotib olingan tovarlar bo'yicha to'langan soliq summasiga guvohnomaning amal qilishi to'xtatib turilgan davr uchun hisobga qabul qilinishini soliq tizimining adolatli va shaffofligini ta'minlaydi.

9. Mamlakatimiz mineral xom-ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida budjet mablag'lari hisobidan yillik ko'rsatiladigan geologiya xizmatlari bo'yicha aylanmaning qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar obyektidan chiqarilishi ushbu xizmatlar sifatini ta'minlash va hisobini yuritilishini takomillashtirilishiga xizmat qiladi.

10. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani kengaytirishda budjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalar, pochta markalari, markali otkritkalar, konvertlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni bekor qilinishi maqsadga muvofiq.

11. Bilvosita soliqlar bo'yicha soliq hisobotlarini soliq elementlariga moslashtirish maqsadida alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda aksiz solig'i aksiz to'lanadigan mahsulot tarkibidagi etil spirtning ulushidan kelib chiqqan holda ishlab chiqariladigan alkogol mahsulotlarining o'lchov birligini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish zarur.

12. Bojxona va soliq ma'lumotlarini tahlil qilish orqali differentsiallashtirilgan aksiz stavkalari joriy etilishi esa ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish,

adolatli raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Soliq stavkalari va tushumlar uchun makro fiskal prognoz tizimining joriy qilinishi esa budget rejalashtirish va inflyatsiyani nazorat qilish kabi strategik masalalarda davlat siyosati samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, ushbu takliflar soliq tizimida samaradorlikni, shaffoflikni va adolatni ta'minlashga qaratilgan ilg'or va zamonaviy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ular O'zbekistonning raqamli va fiskal transformatsiya jarayonlarini yanada tezlashtirib, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.22/29.12.2023.I.175.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**БАНКОВСКО-ФИНАНСОВАЯ АКАДЕМИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

ЭРГАШЕВ ИЛХОМЖОН ОБODOВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОСВЕННОГО
НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ
ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора наук (DSc) по экономическим наукам

город Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером B2025.1.DSc/Iqt909 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tiu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант: Тошматов Шухрат Амонович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Гулямов Саидахроп Саидахмедович
доктор экономических наук, академик
Хусанов Дурбек Нишанович
доктор экономических наук, профессор
Пардаев Умиджон Уралович
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация: Высшая школа бизнеса и предпринимательства при
Кабинете Министров Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «20» 09 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.22/29.12.2023.I.175.01 при Tashkent International University. Адрес: 100014, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, д. 7, Тел.:(99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Tashkent International University (зарегистрирована под номером 86). Адрес: 100014, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, д.7, Тел.:(99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Автореферат диссертации разослан «28» 08 2025 года
(протокол реестра № 44 от «19» 07 2025 года).



Н.Х. Жумаев
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор экономических наук,
профессор

А.Т. Абсаламов
Учёный секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор экономических наук, доцент

Д.А. Рахмонов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, доктор
экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Косвенные налоги являются одним из важнейших финансовых источников формирования доходов государственного бюджета в мировой экономике. Косвенные налоги, в отличие от прямых налогов, взимаются с потребления товаров и услуг и бремя налога обычно ложится на конечного потребителя. По данным международной статистики в 2024 году прямые налоги составили 56,72 процента от общего объема налоговых поступлений, что выше показателя 2023 года, составлявшего 54,63 процента. Подобное увеличение привело к снижению доли косвенных налогов до 43,28 процента²¹, что свидетельствует о возросшей роли косвенных налогов в налоговой политике. Стоит отметить, что многие страны финансируют большую часть своего бюджета за счет косвенных налогов. В частности, налог на добавленную стоимость (НДС) является одним из самых распространённых налогов в мире и в настоящее время применяется в 174 странах. Из 38 стран, входящих в Организацию Экономического Сотрудничества и Развития (ОЭСР), 37 стран внедрили систему НДС²². Кроме того, в соответствии с Директивой, принятой Европейским Союзом (Council directive 2006/112/EC), определяются аспекты применения НДС для стран-членов этого Союза²³. Подобная ситуация ставит на повестку дня необходимость эффективного управления и цифровизации НДС и общих механизмов косвенного налогообложения. Ведь создание эффективного налогового администрирования не только обеспечивает полноту поступления доходов в бюджет, но и создает возможность для равномерного и прозрачного распределения налоговой нагрузки между налогоплательщиками. В этой связи внедрение современных цифровых решений для корректного исчисления, сбора и контроля косвенных налогов стало одним из приоритетов налоговой политики стран.

Во всем мире проводятся масштабные научные исследования по совершенствованию системы косвенного налогообложения в целях обеспечения устойчивости доходов государственного бюджета и повышения эффективности налоговой и бюджетной политики. Данные исследования в условиях цифровой экономики направлены в первую очередь на обеспечение полного и прозрачного учета налоговых платежей, поддержание устойчивых и предсказуемых налоговых поступлений, а также совершенствование налогового администрирования. В международной практике большое внимание уделяется совершенствованию механизмов взимания косвенных налогов, особенно налога на добавленную стоимость (НДС), акцизов и таможенных пошлин, в случаях, связанных с производством и экспортно-импортными операциями. В них налоговое бремя пассивным образом

²¹ Direct Tax Collection Reaches 14-Year High in 2023-24. <https://vajiramandravi.com/upsc-daily-current-affairs/mains-articles/direct-tax-collection-reaches-14-year-high-in-2023-24/>.

²² Alastair Thomas. VAT Rate Structures in Theory and Practice. Macroeconomics, Trade and Investment Global Practice January 2024. <chromeextension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://documents1.worldbank.org/curated/en/099920201182414099/pdf/>.

²³ <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2006/112/oj/eng>

возлагается на потребителя и тесно связано с ценовой эластичностью спроса и предложения. Косвенные налоги, такие как налог на добавленную стоимость (НДС), являются важным источником государственных доходов во всем мире. В международной практике одним из актуальных направлений стала автоматизация исчисления косвенных налогов, внедрение механизмов их учета в цифровой экономике, а также повышение эффективности этих видов налогов за счет привлечения в налоговую базу цифровых финансовых активов, цифровых товаров и услуг. Кроме того, совершенствование систем расчета, сбора и контроля налогов с помощью цифровых инструментов повысит эффективность налогового администрирования и минимизирует возможности уклонения от уплаты налогов. Таким образом, устойчивое обеспечение доходов государственного бюджета станет возможным за счет проведения цифровой налоговой реформы, цифровизации НДС, онлайн-мониторинга деятельности налогоплательщиков, внедрения механизмов автоматического расчета. Научные исследования, проводимые в этой области, являются важным источником, дающим научное, теоретическое и практическое обоснование этого процесса.

В Узбекистане возрастает необходимость обеспечения бюджетной устойчивости путем совершенствования системы косвенного налогообложения, фискальной поддержки инновационной деятельности, формирования единого методологического подхода к налоговому законодательству. В этой связи необходим ряд стратегий по совершенствованию системы косвенного налогообложения. Эти стратегии включают такие меры, как расширение налоговой базы, повышение эффективности налогообложения, развитие налогового администрирования, оптимизация налогового бремени и льгот, а также улучшение международных налоговых отношений. При этом при реализации этого процесса важно учитывать экономические, социальные и политические факторы. В связи с этим совершенствование системы косвенного налогообложения для обеспечения стабильности доходов государственного бюджета определено в качестве приоритетных задач.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 24 августа 2021 года №УП-5755 «О совершенствовании администрирования налога на добавленную стоимость», от 8 апреля 2022 года №УП-101 «Об очередных реформах по созданию условий для стабильного экономического роста путем улучшения предпринимательской среды и развития частного сектора», от 28 июня 2022 года №УП-162 «О мерах по созданию благоприятных условий для бизнеса в период реформы налогового администрирования», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 30 декабря 2022 года №ПП-471 «О мерах по обеспечению исполнения Закона Республики Узбекистан «О государственном бюджете Республики Узбекистан на 2023 год», Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 26 июня 2023 года №ПКМ-313 «О введении акцизных марок нового образца

на алкогольную и табачную продукцию», от 22 сентября 2021 года №ПКМ-595 «О мерах по дальнейшему совершенствованию постановки на учет налогоплательщиков и упрощению порядка возмещения налога на добавленную стоимость», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий I. «Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации²⁴.

